

TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIYA SOHASINING SHAKLLANISHI, KASB-HUNAR
TERMINOLOGIYASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna

Far DU mustaqil tadqiqotchisi

Sharipova Gulchehra Erkinovna

Far DU akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikda terminologiya sohasining shakllanishi tarixi, rivojlanish bosqichlari yuzasidan fikr yuritilgan. Kasb-hunar terminologiyasining ilmiy-nazariy asoslari haqida Rishton kulolchilik terminlarini lingvistik tadqiq etish asosida ilmiy xulosalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar terminologiyasi, termin, terminosistema, o'zbek paxtachilik terminologiyasi, zargarlik terminlari, o'zbek tilining dehqonchilik leksikasi, o'zbek tili yog'ochsozlari leksikasi, o'zbek tilidagi qoramolchilik terminlari, o'zbek milliy gazlama dizaynerlik terminologiyasi...

Yurtimizning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi chuqur o'zgarishlar tufayli o'zbek tilidagi kasb-hunar terminlari o'rganish zarurati tug'ildi. Kasb-hunar leksikasi turli yo'nalishlarda tadqiqotga tortildi. Ularning ichida ayrimlari mavzumizga bir qadar yaqin va o'xshash bo'lib, ularga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Jumladan, I. Pardayev O'zbek tilining zargarlik terminlari uchun xos bo'lgan xususiyatlarni yoritgan. Zargarlik terminlarining tematik tasnifiga asosiy e'tiborni qaratib, uni mavzu guruhlarga ajratgan: zargarlik zeb-ziynat buyumlari nomlarini ifodalovchi terminlarni qo'l, barmoqqa taqiladigan zargarlik zeb-ziynat buyumlari, quloqqa, peshonaga, sochga, burunga, bo'yinga taqiladigan zargarlik zeb-ziynat buyumlari, ularning qismlarini anglatuvchi terminlar, zargarlik buyumlarini yasash jarayoni, uning xomashyosi va bu jarayonda ishlatiladigan ish qurol nomini ifodalovchi terminlar, mazkur kasb egalari nomini anglatuvchi terminlar kabi guruhlarga ajratgan. Sohaga oid birliklarni boyishida ichki manbaning o'rni haqida fikr yuritib, affiksatsiya va kompozitsion usulda yasalgan zargarlik terminlarini tahlil etgan.

N.Mamatov "O'zbek paxtachilik terminologiyasi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida kasb-hunar sohasiga oid ilk izlanishlarni amalga oshirgan. Ushbu tadqiqotda olim paxtachilik bilan bog'liq atamalar va ularning tasnifi, termin va uning so'z va so'z birikmasi kabi birliklardan farqi, termin uchun tilshunos olimlar tomonidan berilgan ta'riflar, O'zbekiston hududida paxtachilikning rivojlanish tarixi va u bilan bog'liq holda yangi terminlarning

paydo bo'lishi, boyish yo'llari haqida qimmatli fikrlarni berib o'tgan.

X. Jabborov o'z tadqiqot ishlarini o'zbek tilining dehqonchilik leksikasiga mansub bo'lgan terminlarni tadqiq etishga qaratgan. Ushbu tadqiqotida dehqonchilik leksikasining xalq tarixi va til tarixi aspektida o'rganib, dehqonchilik leksemalarining etimologiyasi, o'z va o'zlashgan qatlam, dehqonchilik leksikasining qadimgi turkiy qatlami, turkiy va mo'g' ullarga xos lug' aviy birliklar, o'zbekcha so'zlar kabi masalalarini yoritgan. Dehqonchilik leksikasining mavzu guruhlarini motivlanish xususiyatlarini ochib bergan. Jabborov dehqonchilikning ichki guruhlarini: paxtachilik, polizchilik, donchilik, sabzavotchilik, mevachilik(bog' dorchilik), gulchilik, ko'katchilik kabi kasb-hunar sohalariga oid bo'lgan birliklardan jami 5045 tasini jamlab ular ustida tadqiqot ishlarini olib borgan.

M. Axatov O'zbek tili yog'ochsozlari leksikasida uchrovchi terminlarni tadqiqotga tortgan. Yog' ochsozlik terminlari va ularning shakllanish tarixi, mavzu guruhlarini, mazkur terminlarning ichi va tashqi manba hisobiga boyish yo'llari, soha terminlari o'rtasidagi sinonimiya va variantdoshlik hodisalari ustida tadqiqot ishlarini olib borgan. Yog' och bilan shug'ullanuvchi yigirmaga yaqin : uysozlik, aravasoqlik, qayiqsozlik, javonsozlik, eshiksozlik, beshiksozlik, sandiqsozlik, panjarasoqlik, mebelsozlik, duradgorlik, yog' och o'ymakorligi kabi turli kasb –kor egalarining ish faoliyatini qo'llanuvchi terminlarda adabiy tilda tutgan o'rni belgilash, yaxlit sistema sifatida tahlil etilgan. Terminlarning yasalish usullarini o'rganib, boshqa sistemadan farqli jihatlarini yoritgan. Ularning tarixiy-etimologik qatlamlarini aniqlab genetik asoslarini isbotlab bergan.

O.T.O'rinova O'zbek tilidagi qoramolchilik sohasiga doir bo'lgan terminlarni leksik-semantik jihatdan tadqiq etib, soha terminologiyasining mazmuniy maydon sifatida o'rganish muammolarini o'rtaq tashlagan. Qoramolchilik terminlarining leksik-semantik tavsifi, qoramol nomini bildiruvchi terminlar, qoramol anatomiyasi va ularda uchraydigan kasalliklar, ularning parvarishi, cho'ponlik hayoti bilan bog'liq terminlarni o'rgangan. Qoramolchilik terminlari o'rtasidagi giponomik, paronomik hamda ma'nodoshlik hodisalari yuzasidan tadqiqot olib borgan.

M. Aliyeva sohaviy terminologiya ichidan o'zbek milliy gazlama dizaynerlik terminologiyasi taraqqiyoti terminlarning ma'no tuzilishi, semantik-grammatik xususiyatlarini yoritishga bag' ishlangan ilmiy izlanishlar olib bordi. Milliy gazlama terminologik maydon komponentlarini o'ziga xos derevativ xususiyatlarini yoritib A (o'zb)+Af (o'zb), A (o'zb)+Af (o'zga), A (o'zga)+Af

(o'zga), kabi o'linish asosida tadqiq etgan.¹⁰² Bunday bo'linishni kulolchilik va boshqa sohaviy terminlarning derevativ xususiyatlarini o'rganishda tadbiq etish mumkin.

X.Berdieyv o'zbek tilining o'tovsozlik leksikasiga doir birliklarni yozma manbalarda, o'zbek adabiy tili va shevalarda qo'llanishi, ularni tartibga solish yuzasidan batafsil ma'lumotlar berib, o'tovsozlik sohaning terminologik apparati shakllantirilgan. Soha leksikasi terminlari o'zbek xalqining milliy an'ana va qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvistik birliklar ekanligini ta'kidlab, o'tovsozlik terminlarining adabiy til va Markaziy Osiyo turkiy tillarida qo'llanishidagi fonetik, leksik-semantik farqlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishini amalga oshirgan va materiallar asosida dalillab bergan. Jumladan, Alisher Navoiy asarlari lug' atidagi, "O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug' ati"dagi 60 ga yaqin, "Surxondaryo o'zbek shevalari lug' ati"dagi 20 dan ortiq, "Qashqadaryo o'zbek xalq shevalari so'zligi"dagi 100 dan ziyod, "Zominning til qomusi"dagi 30 ga yaqin, shuningdek "O'zbek klassik asarlari uchun lug' at"dagi 40 ta, "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug' ati"dagi 30ga yaqin so'z/terminlar¹⁰³ ustida tadqiqot ishlarini olib borgan.

A.Ibatova O'zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog' liq lug' aviy birliklarni tahlil etib mazkur birliklarning sistem-struktur xususiyatlari, lingvokulturalogik, konseptual jihatlarini ochib bergan. Non va non mahsulotlari ularning terminologik tizimda tutgan o'rni, ular bilan bog' liq etnografizmlarni o'rganib, o'zbek tilining milliy an'ana va qadriyatlarini ifoda etuvchi lingvistik birlik sifatida tadqiqotga tortib, Samarqandda non va non mahsulotlariga nisbatan qo'llanadigan 50 dan ortiq, Zomin tumanida 30 ga yaqin, Qashqadaryo viloyatida 20 ga yaqin, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarini 10 ga yaqin¹⁰⁴ birliklarini sharhlab o'tgan.

Ko'rinadiki, sohaviy terminologiyaning bir qancha yo'nalishlari yoritilgan, ammo kulolchilik sohasiga oid terminlar monografik tarzda o'rganilmagan. Mazkur sohada ilk ilmiy izlanishlar olib borgan olim, sohaviy o'zbek terminologiyasining asoschisi S. Ibrohimovdir. U xalq tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan boy terminologiyaning qonuniyatlarini o'rganmay, , bunday nazariy masalalarni maqsadga muvofiq hal etib bo'lmasligini hisobga olgan holda olim Farg' ona shevalari uchun xos bo'lgan kasb-

¹⁰² М. Алиева Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Фарғона 2018. -Б. 16

¹⁰³ X. Бердиев Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. - Самарқанд, 2017.- В 14

¹⁰⁴ . Ibatova A O'zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog'liq lug'aviy birliklar tadqiqi.- : Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. - Самарқанд, 2023.-В. 14

hunar leksikasini tadqiq etishga kirishgan. Ilmiy izlanishlarida degrezlar va rixtgardlar leksikasi, metallsozlik leksikasi uchun xos bo'lgan birliklarni tahlil etgan, Jumladan, olim ipakchilar, tandirchilar, shuvoqchilar, kulollar, degrezlar, rixtgarlar, metallsozlar, temirchilar, qulfsozlar, ignachilar, pichoqchilar, chilangarlar, taqachilar, na'lgarlar, misgarlar, anjomsozlar, mixgarlar, zanjirsozlar, naqqoshlar, zargarlar, miynogarlar, savatgarlar, gahchilar leksikadan 2500 ga yaqin leksik birliklarni yig'ib olib, ular ustida tadqiqot ishlari olib bordi. Natijada keyinchalik bajarilgan ko'plab ishlar uchun uning asarlari qimmatbaho manba vazifasini o'tamoqda. S. Ibrohimov kulolchilik bo'yicha izlanishlar olib borar ekan, Farg'ona vodiysida kulolchilik sohasida uzoq yillar ishlagan, tajriba orttirgan, kulolchilik ravnaqining rivojiga hissa qo'shgan usta kulollar anchaligini ta'kidlagan. Kulolchilikka oid terminlarning leksik-semantik guruhlarini tuzish, kulolchilik terminlari o'rtasidagi paradigmatic munosabatlarni o'rganish, terminlarning nomlanish prinsiplari haqida, ularning struktur xususiyatlarini ochib berilmagan, boyish manbalari haqida fikr yuritmagan. S. Ibrohimov mazkur sohaning ayrim jarayonlarida qo'llangan terminlar ustida ish olib borgan. Olim ilmiy izlanishlarida ham asosiy e'tiborni kulollik buyumlarini ishlab chiqarish jarayoniga qaratadi. Kulolchilik terminlarining lisoniy tahlili yana chetda qolgan. Jarayonda qo'llangan kulolchilik terminlarini o'rni bilan sharhlab, ularning qaysi tildan o'zlashganligi, shevadagi variantlari, agar bu termin yasama bo'lsa, morfem tarkibi haqida ma'lumotlar berib o'tadi. Masalan, **Kosa** –[F.] bir kishi ovqat yeydigan idish. Bu so'zni Andijon, O'sh, Shahrixonda ka:sa:, Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona, Rishton hududlarida yashovchi aholi esa Ko:sa shaklida talaffuz etadi. Muallif kulolchilik idishlarining ishlab chiqarish jarayoniga to'xtalib o'tgandan so'ng, sopol idish nomlari va turlari xususida fikr yuritib loydan yasaladigan idishlardan: kosa, lagan, charxi, xurma, xum, ko'za va ularning qay maqsadda mo'ljallanganligi haqida ma'lumotlar berib o'tadi. Shundan so'ng tandirchilik leksikasini tadqiq etishga kirishadi. Terminlarning tematik tasnifi, morfologik, leksik-semantik xususiyatlari nazardan chetda qoladi

Demak, Rishton kulolchilik leksikasiga mansub so'z va terminlar o'zbek tili lug'at tarkibida ma'lum semantik maydonni tashkil qiladi. Mazkur birliklarni lisoniy tahlil etish milliy madaniyatimiz, tarix, etnografiya, lingvokulturalogiya yo'nalishlarida ham ahamiyatga molik masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алиева М. Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Фарғона 2018. -Б. 16
2. Бердиев Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. - Самарқанд, 2017.- В 14
3. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I.- Тошкент: Фан, 1959
4. Ibatova A. O‘zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog‘ liq lug‘ aviy birliklar tadqiqi.- : Filol. Fan. bo‘yicha falsafa dokt...diss.avtoref.- Samarqand 2023.-В. 14
5. Собиров С. Узбек тилининг системалар системаси тамойиллари асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. –Б. 27-28.